“O‘zsanoatqurilishbank” ATB tomonidan ijro intizomini samarali tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida

MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 25-iyulda **“Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi **117-sonli** Farmon qabul qilinib, unga ko‘ra Prezident **Farmon**, **qaror**, **farmoyish** va **topshiriqlari** hamda hukumat **qaror** va **topshiriqlari ijrosini tashkil etish** va **nazorat qilishning yanada samarali mexanizmlari** yo‘lga qo‘yildi.

Bu bilan, Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlarida berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida **“O‘zsanoatqurilishbank” ATB** tomonidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, bankda ijro intizomiga bevosita mas’ul mustaqil tarkibiy bo‘linma sifatida **Ijroni boshqarish va rivojlantirishni tahlil qilish departamenti** faoliyati tashkil etilgan bo‘lib, bankda **ish yuritish** va **ijro nazoratini tashkil etish**da xat-hujjatlarning **elektron aylanishi** yo‘lga qo‘yilgan.

Jumladan, bugungi kunda, ushbu **elektron dastur** orqali:

- qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar kelib tushgan vaqtdan boshlab **30 daqiqa** mobaynida Ijro departamenti mas’ul xodimi tomonidan **ro‘yxatdan o‘tkaziladi** hamda **rahbariyatga axborot beriladi**;

- rahbariyat **bir kun muddatda** mas’ul ijrochini belgilagan holda **tegishli topshiriqlarni beradi**;

- **belgilangan muddat** doirasida mas’ul ijrochi tomonidan topshiriq ijrosi bo‘yicha ma’lumotlar va hujjatlar rahbardan elektron tasdiqlanib, **tegishli tashkilotlarga yuboriladi**.

Ushbu elektron dastur orqali topshiriqlarning bajarilish jarayoni doimiy nazorat qilinadi, belgilangan muddatlarda ijro etilishini monitoring qilish, ijro intizomini tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish imkoniyatlari yaratilgan.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2026-yilning **29-oktabr** holatiga **“Ijro.gov.uz”** tizimi orqali **quyidagi ijro mexanizmlari** yo‘lga qo‘yilgan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **jami 478 ta** hujjatda **2 816 ta topshirig‘i** kelib, **2 143 ta**si (**76 foizi**)ning ijrosi to‘liq ta’minlangan;

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tomonidan **45 ta** hujjatda **147 ta topshiriq** kelib, **128 ta**si (**87 foiz**) ijrosi ta’minlandi;

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan **236 ta** hujjat bilan **787 ta topshiriq** kelib, **567 tasi** (**72 foizi**) bajarilgan.

Ta’kidlash joizki, qolgan topshiriqlar **belgilangan muddatlarga muvofiq** ijro etilmoqda.

Berilgan topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida, to‘liq hamda sifatli ta’minlash maqsadida, o‘rnatilgan tartibda **barcha zarur choralar** ko‘rib kelinmoqda:

birinchidan, **har haftaning juma kuni** Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari huzurida **“Ijro.gov.uz”** elektron tizimi orqali kelib tushgan topshiriqlar hamda maqsadli ko‘rsatkichlarning bajarilishi holati muhokama qilinadi. Shuningdek, **har haftaning dushanba kuni** Boshqaruv raisi boshchiligida ijro intizomi yo‘nalishidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish masalalari yuzasidan yig‘ilishlar o‘tkaziladi;

ikkinchidan, **haftada bir marotaba** rais o‘rinbosarlari boshchiligida maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilish holatini tegishli tarkibiy bo‘linmalar bilan birgalikda ko‘rib chiqilib, muhokama qilinmoqda.

uchinchidan, **har oy yakuni bo‘yicha** bank Boshqaruvining kengaytirilgan yig‘ilishlarida **maqsadli ko‘rsatkichlarni bajarilishiga mas’ul xodimlarning javobgarligini oshirish** maqsadida bank Boshqaruv raisi va uning o‘rinbosarlari kesimida har bir maqsadli ko‘rsatkich tanqidiy muhokama qilingan holda, tegishli choralar ko‘rib borilmoqda;

to‘rtinchidan, reja-grafikka muvofiq, bankning tegishli tarkibiy bo‘linmalari va mintaqaviy hamda bank xizmatlari markazlari mas’ul xodimlarining bilim va ko‘nikmalari oshirish maqsadida **iqtisodiy o‘qishlar** tashkil etilmoqda.

Qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari ijrosini ta’minlash maqsadida bank tizimida **kunlik nazorat** o‘rnatilgan bo‘lib, **topshiriqlar ijro holati** yuzasidan **belgilangan muddatlarda hisobot** kiritib boriladi.